

URGANCH SHAHRI JAMOAT TRANSPORT TARMOG‘INI SAMARADORLIGNI BAHOLASH.

Ziyayev Kamoliddin Zuxritdinovich

Toshkent davlat transport universiteti, PhD, dotsent,
O‘zbekiston, Toshkent sh. komoliddin28@mail.ru

Abdurazzokov Umidulla Abdurazzokovich

Toshkent davlat transport universiteti, PhD, dotsent,
O‘zbekiston, Toshkent sh. abdurazzoqovumid@gmail.com

Omarov Janserik Abdiganiyevich

Toshkent davlat transport universiteti, tayanch doktorant,
O‘zbekiston, Toshkent sh. omarovj82@mail.ru

Abdujalilova Moxinur Valijon qizi

Toshkent davlat transport universiteti, talaba,
O‘zbekiston, Toshkent sh. abdujalilovamohinur03@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Urganch shahar jamoat transporti tarmog‘ini PTV VISUM dasturida qurish uslubi yoritilgan. Urganch shahar xududidagi 14 ta shahar jamoat transporti yo‘nalishlari o‘rganish natijasida Urganch shahar jamoat transport tizimini takomillashtirish uchun takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: *jamoat transporti, avtobus, avtobus yo‘nalishlari, transport tarmog‘i, transport tizimi.*

ABSTRACT

This article describes the method of building the Urganch city public transport network in the PTV VISUM program. As a result of the study of public transport routes of 14 cities in the territory of Urganch city, proposals are made for improving the public transport system of Urganch city.

Key words: *public transport, bus, bus routes, transport network, transport system.*

KIRISH

Urganch aglomerasiyasining shahar jamoat transporti tarmog‘ida shahar va shaharlararo muntazam tashish yo‘nalishlariga muvofiq jamoat transporti yo‘nalishlari tarmog‘i to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shuningdek, shahar yo‘nalishlarini o‘rganish natijalari kiritilgan. Modeldagi marshrut tarmog‘i haqidagi ma‘lumotlar marshrutlarini, to‘xtash nuqtalarining joylashishini, harakat oralig‘ini,

harakatlanuvchi tarkib va uchastkalarni, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi tashuvchilar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Modelda jamoat transportining quyidagi turlari ko'rsatilgan: katta sig'imli avtobus (LarBus), o'rta sig'imli avtobus (MedBus), yo'nalishli taksi (MiniBus), shaharlararo avtobus, tralleybus (Tral). Urganch shahrining jamoat transporti turini ko'rsatuvchi yo'nalishlar ro'yxati 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

Urganch shahar jamoat transporti yo'nalishlari ro'yxati

Yo'nalish nomeri	JT turi	Xizmat ko'rsatuvchi nomi	Harakatlanuvchi tarkib turi
1	MedBus	"Bunyod yo'lovchi tashish" MCHJ	ISUZU
2	MedBus	"Bunyod yo'lovchi tashish" MCHJ	ISUZU
3	MedBus	"Xorazm Dovud Servis Trans" DUK	ISUZU
4	MedBus	"Bunyod yo'lovchi tashish" MCHJ	ISUZU
5	MedBus	"Bunyod yo'lovchi tashish" MCHJ	ISUZU
6	MedBus	"Xorazm Dovud Servis Trans" DUK	ISUZU
7	MedBus	"Bunyod yo'lovchi tashish" MCHJ	ISUZU
9	MedBus	"Bunyod yo'lovchi tashish" MCHJ	ISUZU
12	MedBus	"Xorazm Dovud Servis Trans" DUK	ISUZU
13	MedBus	"Bunyod yo'lovchi tashish" MCHJ	ISUZU
17	MedBus	"Sirli Vodiy" MCHJ	ISUZU
18	MedBus	"Xorazm Dovud Servis Trans" DUK	ISUZU
19	MedBus	"Opel Trans" MCHJ	ISUZU
28	MedBus	"Bunyod yo'lovchi tashish" MCHJ	ISUZU


Qabul qilingan ma'lumotlarni keyingi tahlil qilishda marshrutlarni jamlash uchun har bir marshrut uchun tashuvchilar kiritildi.

Urganch aglomerasiyasidagi shahar jamoat transporti tarmog'inida jami 14 ta jamoat transporti yo'nalishlari kiritildi. Quyidagi 1-rasmda ishlab chiqilgan shahar jamoat transporti tarmog'inidagi marshrutlari ko'rsatilgan.



1-rasm - Urganch aglomeratsiyasi shahar jamoat transporti tarmog'ining sxemasi


Shahar jamoat transporti tarmog'i, yo'nalishdagi to'xtash nuqtalari ketma-ketligi bilan marshrutlarning geometrik o'tishini o'z ichiga oladi. Har bir marshrut uchun yo'nalishda bo'lish vaqtini aniqroq hisoblash uchun ularda to'xtash vaqti bilan to'xtash punktlari to'plami aniqlandi. 2-rasmda Urganch shahridagi avtobus marshruti misolida to'xtash joylari bilan bekatlar oralig'idagi masofalar ko'rsatilgan.



2-rasm - Jamoat transporti yo'nalishi (PTV VISUM dasturida)

Shahar jamoat transporti tarmog'ida avtobus bekatlari ham kiritilgan. Urganch shahri xududida jami 259 ta shahar jamoat transporti to'xtash nuqtasi kiritildi. Shahar jamoat transporti yo'nalishlari deyarli barcha to'xtash nuqtalari o'tadi. PTV

VISUM dasturida qurilgan to‘xtash nuqtalarining Urganch markazidagi bir qismi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm – Urganch shahrining markaziy qismidagi to‘xtash punktlari

Jamoat transportini to‘g‘ri hisoblash va batafsilroq o‘rganish uchun modelga xarakat intervallari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar to‘g‘ri kiritilshi kerak. Shu bilan birga, so‘rovlar ma‘lumotlarini tahlil qilish natijasida shahar yo‘nalishlarida harakatlanishning haqiqiy intervallari aniqlandi.

Modelga marshrut tarmog‘i haqidagi ma‘lumotlar to‘g‘ri kiritish orqali shahar transport tizimining samaradorligini baholasak bo‘ladi.

REFERENCES

1. Ziyaev K., Navoiy shahrining transport oqimini tanlanma asosida miqdoriy tadqiqot qilish uslubi, *The Scientific Journal of Vehicles and Roads* (2021)
2. Ziyayev K., Omarov J., Abduraximov L., [2021], Metod postroyeniya gorodskogo sikla putem sinteza. *Temir yo‘l transporti: Dolzarb masalalar va innovasiyalar.* –2021. –№3. – 43-55 b. ISSN 2181-953X.
3. Ziyayev K.Z., Abdurazzokov U.A., Ismailova Sh.B., Transport samaradorligi va harakat xavfsizligini oshirishning zamonaviy yo‘li, *Uzbek Scholar Journal*, volume 9 (2022)
4. MukhitdinovA., Ziyaev K., Omarov J., Ismoilova Sh., [2021], Methodology of constructing driving cycles by the synthesis, *CONMECHYDRO – 2021*, E3S Web of Conferences 264, 01033, <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126401033>
5. Ziyayev K.Z., Abdurazzokov U.A., Ismailova Sh.B., Transport samaradorligi va harakat xavfsizligini oshirishning zamonaviy yo‘li, *Uzbek Scholar Journal*, volume 9(2022)

6. Ziyaev K., Omarov J., Urganch shahri jamoat transportida yo‘lovchilar oqimini o‘rganish, Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali (2022), volume
7. Mukhitdinov A., Kutlimuratov K., Khakimov Sh., Samatov R., Modelling traffic flow emissions at signalized intersection with PTV Vissim, E3S Web of Conferences, (2021), DOI: 10.1051/e3sconf/202126402051
8. Ziyaev K., Yomg‘irchayev B., Intellektualnaya sistema upravleniya trafikom, THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD (2022)